

## O'QUVCHILARNING BILIMINI BAHOLASH MEXANIZMLARINI YANGILASH, ULARNI XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHTIRISH

**Isroilova Oysanam Rustam qizi,**  
*Jizzax davlat pedagogika universiteti*  
*o'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi*  
*2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'quvchilarning bilimni baholashda yangi va standartlashgan tizim yaratish, yangi darsliklar asosida yozma ishlarni adolatli tashkil etish tamoyillarini amaliyotga joriy etish, yozma ishlarning ona tili o'qitishdagi o'rni, undan ko'zlangan maqsadlarga erishishda o'quvchilar bilan ishlash texnikalari, yangi darsliklar asosida yozma ishlarni tashkil etishning samarali usullari, yozma ishlarning mustaqil fikrlash ko'nikmasini rivojlantirishdagi ta'siri haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** yozma ishlar, innovatsiya, mustaqil yondashuv, kreativlik, fikrlash qobiliyati, erishimli vazifa, baholash mexanizmi, standart.

**Аннотация.** В трех статьях рассматриваются вопросы создания и стандартизированной поддержки знаний учащихся, формирования навыков письменной работы в соответствии с новыми учебниками, создания новых учебников, новой роли письменной работы в обучении, методов работы с учащимися для достижения желаемых результатов, эффективных методов формирования навыков письменной работы на основе новых уроков и эффективных методов формирования самостоятельного мышления в процессе письма.

**Ключевые слова:** письменная работа, инновации, самостоятельный подход, креативность, навыки мышления, выполнимая задача, механизм оценки, стандарт.

**Abstract.** The three articles discuss the creation and standardized support of student knowledge, the creation of written production capacity for it according to new textbooks, the creation of new textbooks, the new role of written work in teaching it, methods of working with students to achieve the desired results, effective methods of creating written production based on new lessons, and effective methods of creating an independent thinking view of writing.

**Keywords:** written work, innovation, independent approach, creativity, thinking skills, achievable task, assessment mechanism, standard.

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimining rivojlanishi davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan bo'lib, bugungi globallashtirish va raqobat kuchayib borayotgan sharoitda o'quvchilarning bilimni baholash mexanizmlarini yangilash, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Ta'lim – bu xalqimizning kelajagi, taraqqiyotimizning tayanchi. Agar ta'lim sifatini oshirmasak, biz hech qachon yuksak marralarga erisha olmaymiz".

**Adabiyotlar tahlili.** J. Biggs (2003), P. Black va D. William (1998), R. Sadler (2005), S. Brookhart (2010) kabi xorijiy olimlarning ishlarida baholash tizimini takomillashtirish, kriterial baholash yondashuvi va uning o'quvchi kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'rni keng yoritilgan. Xususan, PISA va TIMSS kabi xalqaro baholash dasturlarida qo'llanilayotgan metodik yondashuvlar o'quvchilarning yozma savodxonligini baholash mezonlarini ishlab chiqishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, Finlandiya (Sahlberg, 2011), Singapur (Ng, 2017) va Janubiy Koreya (Kim,

2019) tajribalari ta'lim sifatini oshirishda kompetensiyaga asoslangan baholash mexanizmlarining yuqori samaradorligini ko'rsatib berdi. [1.55] Onushkin, E. Polat, N. Kuzmina, V. Serikovlarning ilmiy izlanishlarida ta'limda baholashning psixologik-pedagogik asoslari, yozma ishlarining o'quvchi tafakkurini rivojlantirishdagi roli tahlil qilingan. Rossiyalik tadqiqotchilar A. Zimnyaya (2004), I. Yakimanskaya (2010) va N. Maloshonok (2017) ishlarida esa kompetensiyaviy yondashuvning nazariy-metodik asoslari ishlab chiqilgan bo'lib, ular o'quvchilarning yozma ishlarini baholashda ijodiy va tanqidiy fikrlashni inobatga olish zarurligini alohida ta'kidlaganlar.[3:67] Shuningdek, Qozog'iston va Qirg'iziston tajribasida ham baholash tizimini modernizatsiya qilish, mezonli yondashuv asosida yozma ishlarini tahlil qilish bo'yicha qator ilmiy ishlanmalar amalga oshirilgan.

Mamlakatimiz olimlari orasida esa ta'lim sifatini baholash, yozma ishlarini samarali tashkil etish masalalari mustaqillikdan keyingi yillarda tobora ko'proq tadqiq qilina boshladi. Jumladan, A. Abduqodirov, N. To'raqulov, M. Usmonxo'jayev, O. Xolmatova, G. Shodmonqulova va boshqalarning ilmiy ishlarida umumta'lim maktablarida baholashning nazariy-metodik jihatlari, kriterial baholash tizimini joriy etish mexanizmlari va yozma ishlarini baholashning metodik asoslari yoritilgan. So'nggi yillarda O'zMU, TDPU, Chirchiq DPI olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o'quvchilarning yozma ishlari orqali tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirish masalalari chuqur o'rganilgan. Biroq, ushbu ilmiy izlanishlarda yozma ishlarini yangi baholash tizimi sharoitida metodik jihatdan tashkil etishning yaxlit modeli hali to'liq ishlab chiqilmagan. [1.90]

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy taqqoslash hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida milliy va xalqaro baholash tizimlariga oid ilmiy manbalar, xususan PISA natijalari hamda pedagogik yondashuvlar asosida yozma ishlarini baholash mexanizmlari o'rganildi. Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan kriterial baholash modelini ishlab chiqish va uning amaliy samaradorligini asoslashga qaratilgan konseptual tahlil amalga oshirildi.

**Tahlillar va natijalar.** Bugungi kunda ta'lim sifatini oshirish masalasi nafaqat milliy, balki global miqyosda ham muhim o'rinda turadi. Masalan, 2022-yilgi PISA xalqaro baholash dasturi natijalariga ko'ra, O'zbekiston o'quvchilari o'qish bo'yicha 66-o'rinda, matematika bo'yicha 72-o'rinda, tabiiy fanlar bo'yicha esa 71-o'rinda qayd etildi. [1.40] Ushbu ko'rsatkichlar mamlakatimizda o'quvchilarning yozma va analitik ko'nikmalarini rivojlantirish, ta'lim jarayonida baholashni takomillashtirish zarurligini yaqqol ko'rsatmoqda. Shu boisdan yozma ishlarini tashkil etish metodikasini yangilash, an'anaviy ballik baholashdan bosqichma-bosqich kompetensiyaga asoslangan mezonlarga o'tish, baholash jarayonida o'quvchining faqat grammatik va faktik xatolarini emas, balki mustaqil fikrlash, mantiqiy izchillik va ijodiy yondashuv kabi ko'nikmalarini ham hisobga olish, baholashni zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish hamda

o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalarni ishlab chiqib amaliyotga tatbiq etish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Shunday qilib, "Yangi baholash tizimi bo'yicha maktablarda yozma ishlarni tashkil etish metodikasi" mavzusi ta'lim islohotlari kontekstida dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biridir. Mazkur mavzu o'quvchilarning bilimni adolatli baholash, ularning tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirish, hamda xalqaro baholash dasturlarida O'zbekistonning o'rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yozma ishlar o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini eng to'laqonli ko'rsatadigan vositalardan biri hisoblanadi. Chunki og'zaki javoblarga nisbatan yozma ishlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, mantiqiy izchillikni saqlashi, o'z fikrini asoslab bera olishi va til savodxonligini namoyon qiladi. Zamonaviy ta'lim tizimida faqat tayyor bilimlarni yodlash emas, balki o'quvchining ijodkorligi, tanqidiy fikrlashi, muammoni hal qilish qobiliyati va kommunikativ savodxonligi asosiy mezon sifatida qaralmoqda. Yozma ishlar esa ana shu kompetensiyalarni o'lchashning eng qulay shakllaridan biridir. Xalqaro baholash dasturlari – PISA, PIRLS, TIMSS natijalari ham mamlakatlarning ta'lim tizimi sifatini asosan o'quvchilarning yozma savodxonligi, matnni tahlil qilish, o'z fikrini yozma ravishda ifoda etish ko'nikmalari orqali aniqlamoqda. Shuning uchun ham yozma ishlarni tashkil etish va baholash masalasi bugun nafaqat pedagogik metodika, balki ta'lim sifatini baholashning global mezonlari darajasida dolzarb ahamiyatga ega. Yozma ishlarni tashkil etish va baholash muammolari xalqaro miqyosda ko'plab tadqiqotchilar diqqat markazida bo'lgan.

Agar umumta'lim maktablarida yozma ishlarni tashkil etish jarayonida faqat grammatik va faktik aniqlikka asoslangan an'anaviy baholashdan tashqari, o'quvchilarning mustaqil fikrlash, mantiqiy izchillik, ijodiy yondashuv va kommunikativ savodxonlik ko'nikmalarini inobatga oluvchi *kriterial baholash tizimi* qo'llansa, unda ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirish hamda xalqaro baholash dasturlarida raqobatbardoshlikni ta'minlash mumkin bo'ladi. O'tkazilgan tadqiqotimiz natijalari pedagogika fanida baholash tizimiga oid mavjud ilmiy qarashlarni boyitadi va yozma ishlarni tashkil etishning yangi metodik modelini ishlab chiqish orqali ilmiy-nazariy asoslarni takomillashtirishga hissa qo'shadi. Nazariy jihatdan tadqiqot umumta'lim maktablarida yozma ishlarni baholashni faqat grammatik va faktik aniqlikka asoslangan yondashuvdan kompetensiyaga yo'naltirilgan kriterial baholash tizimiga o'tish zarurligini ilmiy asoslab berdi. Bu orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, mantiqiy izchillikni saqlash, ijodiy yondashuv va kommunikativ savodxonlik kabi ko'nikmalari o'quv jarayonida baholashning asosiy mezoni sifatida belgilandi. Shuningdek, tadqiqot nazariy natijalari baholash metodikasining rivojlanish qonuniyatlarini ochib berdi va kelgusida ushbu yo'nalishda olib boriladigan ilmiy izlanishlar uchun nazariy-metodologik asos yaratdi.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz kerakki amaliy jihatdan tadqiqot natijalari umumta'lim maktablari o'quv jarayoniga bevosita tatbiq etilishi mumkin. Ishlab

chiqilgan metodik model o'qituvchilarga yozma ishlarni samarali tashkil etish va baholashda metodik yordam beradi, o'quvchilarning yozma savodxonligini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari asosida pedagoglar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi, ular o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratishda, OTMLlarda maxsus kurslar tayyorlashda va qayta tayyorlash kurslarida foydalanilishi mumkin. Shuningdek, metodika ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy tafakkurini rivojlantirish hamda xalqaro baholash dasturlarida mamlakatimiz o'quvchilarining raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan pedagogik amaliyotda keng qo'llanilishi mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abduqodirov, A. A. (2015). *Umumta'lim maktablarida baholash tizimini takomillashtirishning nazariy asoslari*. Toshkent: Fan.To'raqulov, N. T. (2018). Kriterial baholash tizimi va uning umumta'lim maktablarida qo'llanishi. *Xalq ta'limi jurnali*, (3), 45–52. Usmonxo'jayev, M. U. (2019). Ta'lim sifatini baholashning zamonaviy yondashuvlari. *Pedagogik mahorat*, (2), 77–83. Toshkent.Toshkent davlat pedagogika universiteti (TDPU) (2021).
2. Biggs, J. (2003). *Teaching for Quality Learning at University* (2nd ed.). Buckingham: Open University Press.Black, P., & Wiliam, D. (1998). Assessment and classroom learning. *Asia Pacific Education Review*, 20(2), 229–241.
3. OECD (2023). *PISA 2022 Results (Volume I): The State of Learning and Equity in Education*. Paris: OECD Publishing. DOI: <https://doi.org/10.1787/ca768d40-en>

Ajiniyaz atindagi  
NOKIS MAMLEKETLIK  
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI  
N M P I  
1934